

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX VILOYAT XALQ TA`LIMI BOSHQARMASI

“UMID” IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA`LIM
MAKTAB –INTERNATI O`ZBEK TILI FANI O`QITUVCHISI
BOBOJANOVA DILAFRUZNING DAVLAT TILI FANIDAN 8- SINF
UCHUN “TABIAT VA BIZ” MAVZUSIDAGI BIR SOATLIK DARS
ISHLANMASI

Mavzu: TABIAT VA BIZ Sinf : 8-sinf

(Modal soʻzlar, ularning gapdagi oʻrni va vazifasi)

Darsning texnologik xaritasi

Maqsad va vazifalar	Maqsad: Oʻquvchilarga modal soʻzlar va uning maʼnolari, qoʻllanishini haqida maʼlumot berish. Vazifalar: Oʻquvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uygʻotish, ularda mavzu asosida bilim va koʻnikmalarni shakillantirish va kengaytirish; -mavzuga oid tarqatilgan materiallarni oʻquvchilar tomonidan yakka holda oʻzlashtirib olishlari hamda elektron darslik bilan ishlab, mavzuni qay darajada oʻzlashtirganliklarini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
Oʻquv jarayonining mazmuni	Modal soʻzlarnig maʼno turlari va uning turli oʻrinlarda qoʻllanib kelishi haqida maʼlumot beriladi.
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<i>Metod:</i> yangi tushunchalar berish. <i>Shakl:</i> suhbat, hamkorlik, aqliy hujum, BBB metodi. <i>Usul:</i> tayyor yozma materiallar va koʻrgazma asosida darslik, tarqatma materiallar, tabiatga munosabat aks etgan rasmlar, kompyuter, proyektor, slaydlar, prezentatsiya (Power Point). <i>Nazorat:</i> savol- javoblar , oʻz -oʻzini tekshirish.
Kutiladigan natijalar:	<i>Oʻqituvchi:</i> mavzuni qisqa vaqt ichida barcha oʻquvchilarning oʻzlashtirishiga erishadi. Oʻquvchilarning faolligi oshadi, ularda darsga nisbatan qiziqish uygʻotadi.

	<i>O'quvchi:</i> yangi bilimlarni osonlik bilan o'zlashtiradi, nutqi rivojlanadi. Esda qolish qobiliyati kuchayadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi.
Kelgusi rejalari:	<i>O'qituvchi:</i> yangi metod va usullarni mustaqil takomillashtiradi. O'z mahoratini oshiradi. <i>O'quvchi:</i> qo'yilgan muammolar bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. Mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. Unda kommunikativ va lingvistik kompetentligi shakllanadi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga o'zbek tilida modal so'zlarning qo'llanishi haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni ona-tabiatga muhabbat, uni asrab-avaylash, oqilona foydalanish ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning nutqiy va grammatikaga doir bilimlarini, og'zaki va yozma savodxonligini oshirish.

Kasbga yo'naltiruvchi maqsad: o'quvchilarni o'z qiziqishlari asosida kasbga to'g'ri yo'naltira olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, "Hamkorlik", "Zanjir", Aqliy hujum", BBB metodlari.

Darsning jihozi: darslik, tarqatma materiallar, tabiatga munosabat aks etgan rasmlar, kompyuter, proyektor, slaydlar prezentatsiya (Power Point).


Internet resurslari : Ziyonet.uz saytidan olingan tabiat haqidagi video namoyishi.

Elektron resurslar: elektron darslik, videolavhalar

Darsning rejasi:

Bosqichlari	Mazmuni	Metodlari	Vaqt
Tashkiliy qism	-salomlashish -tozalikni tekshirish -davomatni aniqlash		3 daqiqa
O`tilgan mavzu va uy vazifasining tahlili	o`tgan darsda uyga berilgan “Chin do‘stlar“ matni va matnga doir savollar va topshiriqlarni so‘rab tahlil asosida baholash.	aqliy hujum	7 daqiqa
Yangi mavzuning qisqacha mazmuni va asoiy tushunchalar	Nutqiy mavzu: Tabiat va biz Grammatik mavzu: Modal so‘zlar, ularning gapdagi o‘rni va vazifasi.	aqliy hujum, klaster metodi	10 daqiqa
Mavzuni mustahkamlash	Nutqiy mavzu: 1-mashq, 1- topshiriq. Grammatik mavzu: 2-3- mashqlar.	zanjir metodi hamkorlikda ishlash	15 daqiqa
O`quvchilar bilimini baholash	Savollar va topshiriqlar yordamida.		5 daqiqa
Uyga vazifa berish	“Sog`lom turmush tarzi” matnidan olgan xulosalar asosida kichik insho yozish		2 daqiqa
Darsni yakunlash	Dars yakunida o‘qituvchi fikrlarni xulosalaydi.		3daqiqa

Darsning shiori:



Atrof muhitni muhofaza qilish ,
shubhasiz, sog`lom turmush
garovidir.

Tashkiliy qism: salomlashib, tozalikni tekshiriladi, sinfning davomati aniqlanadi.
O`quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

Bugun havo qanday?
Какая погода сегодня?
What is the weather like
today?

Sizning kayfiyatingiz
qanday? Как вы себя
чувствуете? How are you
today?


O`quvchilar savollarga *o`zbek, rus va ingliz tillarida* javob berishga harakat qiladilar.

O`tilgan mavzu va uy vazifasining tahlili:


“Aqliy hujum” metodi yordamida uy vazifasi so`raladi.

Uyga berilgan “Chin do`stlar ” matni hamda chinakam do`stlik qanday bo`lishi kerakligi haqidagi uy inshosi so`rab baholanadi.

Savollar tarqatma materiallarda aks ettiriladi




Chinakam do'st sizningcha qanday bo'ladi?



Do'stlik haqida maqollar va hikmatli so'zlardan misollar ayting.



Do'stlik shartlari nimalardan iborat?



Do'st so'zining o'zbek tilidagi ma'nodoshlari (sinonimlari)ni toping. Unda o'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'atidan foydalaning.

Yangi mavzuning qisqacha mazmuni va asosiy tushunchalar:

Slayd namoyishi. Grammatik bilimlar bayoniga doir:


Mavzu: Tabiat va biz (Modal soʻzlar, ularning gapdagi oʻrni va vazifasi)



Modal soʻzlar soʻzlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiradi va quyidagi maʼnolarni bildirib keladi:



“Klaster”



Jumladan:



■ Fikrning xulosasi:demak

■ Fikrning tartibi:avvalo

■ Ishonch:albatta

■ Gumon:balki

■ Afsuslanish:afsuski

■ Quvonch:baxtmizga

Masalan, Demak, tabiatni asrash har bir insonning burchidir.



Nutqiy mavzu bayoni:

Savollar:

1. Insonlar atrof- muhitga qanday munosabatda bo‘lishlari kerak?
2. Atrof -muhitni ifloslantirish qanday oqibatlarga olib keladi?
3. “Sog‘lom turmush tarzi” deganda nimani tushunasiz?

Atrof muhitning ifloslanishining tabiat va hayvonot dunyosiga ta`siri



Sog`lom turmush tarzi:



Yangi mavzuni mustahkamlash:

Nutqiy mavzu: Tabiatni asrash haqidagi video namoyishi.

1-mashq. O`qing. Ajratib ko`rsatilgan so`zlarga e`tibor bering.

Atrof-muhitning ifloslanishi

Ilgari aholining ko`p qismi qishloq joylarda yashar edi. Hunarmandchilik va sanoatning rivojlanishi shaharlarda aholi sonining ko`payishiga olib keldi. Afsuski, sanoat chiqindilari, zavodlardan, transport vositalaridan chiqadigan turli gazlar va tutunlar, hidlar atrof-muhitga, tabiatga salbiy ta`sir qila boshladi. sanoat rivojlangan va uning zararli chiqindilari ko`payib borgan sari tabiat ko`proq zaharlanmoqda. Bundan, avvalo, osimliklar va hayvonot dunyosi katta zarar ko`rmoqda. Ularning ko`pchiligi qirilib ketmoqda yoki sanoqli miqdorlarda “Qizil kitob”ga kiritilmoqda.

Matning lug`ati

Sanoat – промышленность

Zararli-вредный

Giyohvand- наркоман


Chiqindi-отбросы или отходы

Salbiy - отрицательный



Yangi o`rganilgan so`zlarning ma`nodoshlarini "O`zbek tilining ma`nodosh so`zlar lug`ati" dan foydalanib toping.

■ Namuna:



Grammatik mavzuni mustahkamlash:


2-mashq. Nuqtalar o`rniga fikrga munosabat bildiruvchi so`zlardan mosini qo`yib, gaplarni ko`chiring. **"O`yla, izla, top!"** o`yini asosida

.....olimlar buyuk ishlarni amalga oshiradilar. Ular ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qilib, jamiyatni rivojlantiradilar. Ayrim kashfiyotlar,...., bir necha o`n yillik ishlar mahsuli bo`lishi mumkin....., ilm olish igna bilan quduq qazishdir., ustozlarning ishlarini shogirdlari davom ettiradilar. har bir haqiqiy olimning iste`dodli shogirdlari bo`ladi., olim – bog`bon, shogirdlari esa hayot mevalaridir.

3-mashq. Matnni o`qing va modal so`zlarning ma`nolariga e`tibor bering.

Sog`lom turmush tarzi nima? bu, eng avvalo, insonning o`z sog`ligiga e`tibor qilishi, zararli odatlardan o`zini tiyishidir. Ayrim odamlar, ayniqsa, yoshlar orasida nima uchundir, ruxsat berilmagan ishni qilish, chekish, spirtli ichimliklar ichish kabi zarali odatlarga o`rganish kengayib bormoqda. Jumladan, chekadigan odam chekmaydiganlariga qaraganda bir nech barobar ko`p kasal bo`ladilar. Giyohvand moddani bir marta tatib ko`rganlarning, afsuski, o`ntadan to`qqiztasi giyohvand bo`lib qoladi. Dunyoda giyohvandlikdan yomonroq va dahshatliroq narsa yo`q.

Sogʻlom turmush tarzi matni oʻqitilib, unda qoʻllangan modal soʻzlar jadvalga joylashtiriladi. **“Modal soʻzlarni top!”** oʻyini asosida



Oʻquvchilarning baholarini eʼlon qilish:

Darsda faol qatnashgan oʻquvchilarning baholari eʼlon qilinib, ragʻbatlantiriladi.

Uyga vazifa berish:

Sogʻlom turmush tarzi haqida modal soʻzlarni qatnashtirib boʻgʻlanishli matn tuzish.

Oʻquvchilarga oldindan tarqatilgan **“BBB” metodi** kartochkalariga oʻquvchilar dars haqidagi fikrlarini yozadilar:

Bilaman	Bilmoqchi edim	Bilib oldim
_____	_____	_____
_____	_____	_____
_____	_____	_____
_____	_____	_____

Darsning xulosasi:

Aziz o`quvchilar, har bir inson tabiat bag`rida yashab, uning bergan imkoniyatlari va ne`matlaridan foydalanar ekan, avvalo, uni tejab-tergashi, asrab-avaylashi, unga oqilona munosabatda bo`lishi lozim. Aristotel aytganidek, “Tabiat bo`shliqdan qo`rqadi. Tabiatda bo`shliqning bo`lishi esa ulkan halokatdir”. Shunday ekan, eng bebaho boyligimiz bo`lgan ona tabiatni asraylik, qadriga yetaylik!